

ИЖТИМОЙИ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 3



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-3>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабинова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдуғани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвоҳид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решаёт задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счёт внедрения достижений научных исследований учёных и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

1. Mo‘minov Zokirjon

TASHQI MIGRATSIYA JARAYONLARIDA IJTIMOY MOBILIKNI RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.....5

2. Qosimov Vohid

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHDA “KOMPLAENS-NAZORAT” TIZIMI ROLINI OSHIRISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY, IJTIMOY VA HUQUQIY ASOSLARI.....12

3. Mannanova Nilufar

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI FAOLIYATIDA MILLIY-MENTAL XUSUSIYATLARNI E‘TIBORGA OLISHNING AYRIM JIHALARI.....19

4. Kulbekova Nasiba

TA‘LIM TRANSFORMATSIYASI: INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, YANGI PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR HAMDA IQTISODIYOT SOHALARINING STRATEGIK RIVOJLANISH VAZIFALARI VA USTUVOR YO‘NALISHLARI.....26

5. Abduvaliev Fatxulla

YUQORI SINF O‘QUVCHILARI O‘RTASIDA TA‘LIM MIGRATSIYASI TOMON IJTIMOY HARAKATLANISH SABABLARI TAHLILI.....33

6. Akramov Xusan

RATSIONAL TAFAKKUR: ISLOMIY AN‘ANA VA SOTSIOLOGIK NAZARIYALAR KONTEKSTIDA TAHLIL.....46

7. Муллағалиева Фануза, Румянцева Екатерина

ОПЫТ ЖЕНЩИН В НАУКЕ УЗБЕКИСТАНА.....52

8. Mingbayeva Nozimaxon

JAMOATCHILIK FIKRINING FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI IMKONIYATLARI.....59

9. Бозорова Ўлмасхон

БОШҚАРУВДА ЁШ РАЎБАРЛАР ИЖТИМОЙ КАПИТАЛИНИНГ АЎАМИЯТИ.....66

10. Mannanova Nilufar

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI KO‘NIKMALARINI BAHOLASHDA DREYFUS MODELIDAN FOYDALANISH.....73

11. Tangirova Mavjuda

AYOLLAR MEHNAT MIGRATSIYASINING ASOSIY OQIMLARI VA ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI.....80

12. Mirsoliyeva Nargiza

YAPON CHOY MAROSIMINING IJTIMOY-FALSAFIY AHAMIYATI.....88

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Mannanova Nilufar,

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi

Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi,

Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

e-mail: nilufar2627@mail.ru

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI FAOLIYATIDA MILLIY-MENTAL XUSUSIYATLARNI E'TIBORGA OLIHNING AYRIM JIHLATLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17048578>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida milliy mentalitet omilining ahamiyati tahlil qilinadi. Globallashuv va sotsiomadaniy assimilyatsiya sharoitida davlat fuqarolik xizmatini fuqarolarning milliy, madaniy, e'tiqodiy, etnik xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil etilishi muhim hisoblanadi. Milliy mentalitet davlat fuqarolik xizmatchilarining qarorlarni qabul qilish, jamiyat bilan muloqot o'rnatish, islohotlarni amalga oshirish kabi jarayonlarda muhim jihatlardan biri sanaladi. Maqolada milliy madaniyat va etnik mental xususiyatlarni inobatga olgan holda siyosiy va boshqaruv faoliyatini olib borish, xalq bilan muloqotni tashkil etishdagi samaradorlik mazmuni o'rganiladi. Xalq bilan muloqot va odamlarni rozi qilishda davlat fuqarolik xizmatchilarining mediativlik rolini oshirish asosida jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan norozilik holatlari va ijtimoiy ziddiyatlarni oldini olishga preventiv yondashuvning zaruriyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: davlat fuqarolik xizmatchisi, mentalitet, milliy mentalitet, empatiya, konstruktiv muloqot, mediativlik, preventiv yondashuv, xalq bilan muloqot.

Маннанова Нилуфар,

Академия государственной политики и управления

при Президенте Республики Узбекистан,

Доктор философии по социологии (PhD)

e-mail: nilufar2627@mail.ru

НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ УЧЁТА НАЦИОНАЛЬНО-МЕНТАЛЬНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ГРАЖДАНСКИХ СЛУЖАЩИХ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется значение фактора национального менталитета в деятельности государственных гражданских служащих. В условиях глобализации и социокультурной ассимиляции важным становится организация государственной гражданской службы с учётом национальных, культурных, религиозных и этнических особенностей граждан. Национальный менталитет рассматривается как один из ключевых аспектов в таких процессах, как принятие решений государственными служащими, установление взаимодействия с обществом и реализация реформ. В статье исследуется

содержание эффективности политической и управленческой деятельности с учётом национальной культуры и этнических ментальных характеристик, а также в организации диалога с народом. Обосновывается необходимость превентивного подхода к предупреждению возможных случаев недовольства и социальных конфликтов в обществе за счёт усиления медиативной роли государственных гражданских служащих в общении с населением и удовлетворении общественных запросов.

Ключевые слова: государственный гражданский служащий, менталитет, национальный менталитет, эмпатия, конструктивный диалог, медиация, превентивный подход, диалог с народом.

Mannanova Nilufar,

The Academy of Public Policy and Administration
under the President of the Republic of Uzbekistan,

Doctor of Philosophy in Sociology (PhD)

e-mail: nilufar2627@mail.ru

SOME ASPECTS OF TAKING INTO ACCOUNT NATIONAL-MENTAL CHARACTERISTICS IN THE ACTIVITIES OF STATE CIVIL SERVANTS

ABSTRACT

This article analyzes the significance of the national mentality factor in the activities of public civil servants. In the context of globalization and sociocultural assimilation, it is important to organize public civil service with consideration for the national, cultural, religious, and ethnic characteristics of citizens. National mentality is one of the key aspects influencing decision-making by civil servants, their communication with society, and the implementation of reforms. The article examines the effectiveness of political and administrative activities and the organization of dialogue with the public, taking into account national culture and ethnic mental traits. The need for a preventive approach to avoid potential discontent and social conflicts is substantiated by emphasizing the increasing mediating role of public civil servants in their interaction with the population and in meeting people's needs.

Key words: Public civil servant, mentality, national mentality, empathy, constructive dialogue, mediation, preventive approach, dialogue with the people.

KIRISH

Jamiyatning barqaror rivojlanishi, davlat fuqarolik xizmatining samaradorligi va xalq bilan muloqotning konstruktiv tus olishi, avvalo, davlat fuqarolik xizmatchilarining kommunikativ madaniyati, axloqiy fazilatlarini, psixologik tayyorgarligi va eng muhimi, milliy mental xususiyatlarni chuqur anglay olish qobiliyati bilan bevosita bog'liqdir. Bugungi madaniyatlar integratsiyalashuvi va axborot tarqalishining tezlashuvi sharoitida ijtimoiy ziddiyatlar turli shakl va ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin. Bunday sharoitda davlat xizmatchilarining milliy mentalitetni e'tiborga olgan holda, mediativ, ya'ni murosa qiluvchi, tushuntiruvchi va barqarorlikni saqlovchi funksiyasi juda muhim ahamiyat kasb etadi.

METODOLOGIYA

Falsafa qomusiy lug'atida mentalitet tushunchasiga "jamiyat, millat, jamoa yoki yakka shaxsning tarixan shakllangan tafakkur darajasi, ma'naviy potentsiali, turmush qonuniyatlarini tahlil qilish kuchi, ma'lum bir, ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aql-zakovat qobiliyati" [1], tarzida ta'rif beriladi. Shuningdek, mentalitetni "mohiyati va tuzilishi individual va ijtimoiy ongning o'ziga xosligini, kognitiv jarayonlarning mexanizmlari va mazmunini, dunyoni inson va tabiatni idrok etishning o'ziga xos xususiyatlarini, madaniyat olamidagi xatti-harakatlar stereotiplarini ochib beradigan hodisa" [2] sifatida ham ko'rish mumkin.

"Tarixda ma'lumki, dunyodagi har bir millatning shu jumladan o'zbeklarning ham aqliy-ruhiy qiyofasi ya'ni milliy mentaliteti o'ziga xos tarixiy, etniq tabiiy-iqlimiy, etnopsixologiyasi, milliy

an'ana va qadriyatlar, shartsharoitlar doirasida shakllangani bois, uning jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy hodisalar, tarixiy jarayonlarga bo'lgan munosabati ham turli bo'lishi shubhasiz. Zero, milliy o'ziga xosliklar uzoq tarixiy davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlar, tabiiy geografik o'rnashuv, o'zaro etnomadaniy aloqalar, diniy mansubliklar asosida qaror topadi va aynan mana shular hamda xalqning ruhiy psixologik karashlari negizida qadimiy an'analar, urf-odatlar va marosimlar shakllanadi" [3].

Mentalitet tushunchasining mohiyati K.G.Yung [4], Z.Freyd [5], E.Fromm [6], M.Veber [7], T.Parsons [8], P.Sorokin [9]larning ta'limotlarida o'ziga xos tarzda o'rganilgan.

Mentalitet tushunchasining o'rganishda sotsiolog olim P.Sorokinning fikrlariga qaralsa, muallif tadqiqotlarida bir qator muayyan guruhlarga nisbatan o'ziga xoslikni tahlil qilganiga guvoh bo'lamiz. Uning nazariyasida har bir yangi avlod muqarrar ravishda oldingi avlodning merosxo'riga aylanishi, bu yerda mentalitet meros orqali o'tishini avlodlarning muhim xususiyatlari ekanligini tavsiflanadi [9].

Milliy mentalitet – bu xalq yoki millatning tarixiy shakllangan turmush tarzi, qadriyatlari, urf-odatlar, ma'naviy madaniyati, tafakkur tarzi va ijtimoiy ongining mujassam aks etishidir.

Shu nuqtai nazardan, tadqiqotchi R.Murtazoyevaning milliy mentalitet tushunchasini esa, "aql, fikrlash, fikrlash tarzi, ya'ni xalqning milliy o'zligi, milliy o'z-o'zini anglashni tushinish" [10], degan fikriga qo'shilish mumkin.

Milliy mentalitet – bu muayyan millat va etnik guruh vakillariga xos bo'lgan dunyoqarash, xulq-atvor, his-tuyg'ular, an'analar, qadriyatlar, o'ziga xos xususiyatlari jamlanmasidir. U avlodlar almashinuvida shakllangan va tarixiy, madaniy, geosiyosiy omillar ta'sirida barqarorlashgan tizim bo'lib sotsimadaniy stereotip sifatida ifodalanadi. Insonning dunyo va jamiyatga bo'lgan munosabatida ishtirok etadi, yangi voqealar va vaziyatlarga munosabat, ijobiy yoki salbiy emotsional qo'zg'alish, ishonch va norozilik, qabul va rad etish jarayonlari mentalitet ta'sirida ifodalanadi.

Ayniqsa, davlat idoralari va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarda, mentaletning inobatga olinishi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

ASOSIY QISM

Milliy mentalitet xalqlarning faqatgina ichki ruhiy hayotiga oid sub'ektiv hayot faoliyatini emas, balki mazkur xususiyatlarning jamiyat tartiboti va xalq madaniyatida ifodalanishi bilan bog'liq ob'ektiv tomonini ham qamrab oladi.

Mentalitet — bu ko'p avlodlar ongi va xulq-atvorida tarixiy va ijtimoiy jihatdan ildiz otgan madaniyatning chuqur tuzilmalari bo'lib, u tarixiy o'zgaruvchanlikka ega bo'lsa-da, o'z mohiyatida barqaror va doimiy xususiyatlarga ega.

Mentalitet va boshqaruv bir-biri bilan uzviy bog'liq. Boshqaruv uslubi bilan mentalitet o'rtasidagi muvofiqlik — ishlab chiqarish tizimining nisbatan barqarorligini ta'minlaydi, boshqaruvchi va boshqarilayotganlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni yumshatadi hamda inqirozli holatlarni yengib o'tishga ko'maklashadi.

Davlat fuqarolik xizmati sohasida milliy mentalitetning e'tiborga olinishi ikki jihat bilan izohlanadi:

Birinchidan, davlat fuqarolik xizmatchisi mehnat faoliyatida jamoa a'zolarining milliy-mental xususiyatlarini inobatga olgan holda "yumshoq" ko'nikmalari orqali ta'sir ko'rsatishi, yetakchilik, konstruktiv muloqot, kollektiv madaniyatni shakllantirishi, bu orqali ishni jamoaning yakdil, ishga nisbatan xayrixox munosabati asosida samarali tashkil qilishi mumkin bo'ladi.

Ikkinchidan, davlat fuqarolik xizmatchisi xizmat vazifalari, islohotlar ijrosini ta'minlashda ham jamiyatning milliy-mental xususiyatlari, ma'naviy qadriyatlarini e'tiborga olib harakat qilishi, aholi bilan muloqotda o'zi, xizmat sohasi, davlat siyosatiga nisbatan simpatiya shakllanishiga erishishi kerak.

Ushbu ikki jihat davlat fuqarolik xizmatchisi faoliyati samaradorligining oshishiga, ichki va tashqi ziddiyatlarning oldi olinishiga sabab bo'ladi.

Xorij tajribasiga nazar tashlasak, jumladan, Yaponiya amaliyotida davlat xizmatchilari faoliyati yapon xalqiga xos ma'naviy an'analarga asoslangan.

Ular faoliyatida jamoaviy javobgarlik, qarorlarni kelishish, «pastdan yuqoriga» boshqarish tamoyillari muhim o‘rin tutadi. Yaponiyada boshqaruv asosan jamoaviy faoliyatga qurilgan. Bu, bir tarafdin Yaponiyaning geografik va demografik sharoiti bilan bog‘liq. Mamlakatda aholi zichligining yuqoriligi, resurslar cheklanganligi, tabiiy ofatlarning tahdidi yapon xalqida xavf hissi shakllantirgan. Shu sababli, yapon jamiyatida milliy birlik ehtiyoji va talabi o‘ta kuchli. Ular millatning birdamligi va ijtimoiy hamjihatligini oliy qadriyat sifatida belgilaydi.

Shu sababli, Yaponiya boshqaruv amaliyotida jamoaviy yondashuv, harakatlarni muvofiqlashtirish, xodimlarning axloqiy fazilatlarini, ish bilan ta‘minlanishning barqarorligi va ishchi-menejerlar o‘rtasidagi munosabatlarning uyg‘unligiga alohida e‘tibor qaratiladi. Yaponlar, ayniqsa murakkab masalalarni hal qilishda, guruh bo‘lib ishlashda yevropaliklarga nisbatan ancha samarali harakat qilishadi. Yaponiyada qarorlar ko‘p hollarda jamoaviy muhokama orqali ishlab chiqiladi.

Yaponlar mehnat, moliya, kapital va yer resurslaridan ehtiyotkorlik bilan foydalanishadi, boshqaruv tizimini tashkil etishda ham tejamkorlikka amal qilishadi, tejamkorlik, aniqlik, amaliylik, mehnatsevarlik va yangi sharoitlarga yuqori moslashuvchanlik milliy-mental xususiyatlar sifatida ularning qon-qoniga singib ketgan. Masalan, moslashuvchanlik, tejamkorlik kabi xususiyatlari o‘z ifodasini chiqindisiz, energiya va material tejovchi texnologiyalarni tez joriy etishda namoyon qiladi. Butun boshqaruv tizimi innovatsiyalarga ochiq va ularni tez qabul qiladigan tizim sifatida rivojlanadi.

Yaponiyada boshqaruv texnologiyalaridagi zamonaviy o‘zgarishlar jamoaviy qaror qabul qilishda, turli konsepsiyalarni erkin, ammo qiyinchiliklardan qo‘rqmagan holda mehnatsevarlik asosida tanlash imkoniyatining ortishi bilan xarakterlanadi. Bu o‘zgarishlarga intilish milliy an‘analari, ma‘naviy qadriyatlar va ularga sodiqlik asosida amalga oshiriladi.

Yaponiya davlat xizmati tizimi Yevropa yoki Amerika mamlakatlarining davlat xizmatidan yo‘nalishi, qadriyatlari, boshqaruv uslubi, yondoshuvi bilan keskin farq qiladi. Yaponiyada boshqaruvning asosiy ob‘ekti inson — ya‘ni mehnat resurslaridir. Yapon menejeri oldiga qo‘yadigan asosiy maqsad — korxona ish samaradorligini oshirish bo‘lib, bu, asosan, mehnat resurslaridan eng ratsional foydalanish usullari orqali amalga oshiriladi.

Yevropa va Amerika boshqaruv tizimlarida esa boshqaruv faoliyatining markazida ish jarayonlari turadi. Asosiy maqsad — maksimal darajada foyda olish. Bu holat boshqaruv strategiyalari, prinsiplari va maqsadlarga erishish vositalaridagi farqlarni keltirib chiqaradi.

Yaponiyada tashkilotning barcha xodimlari o‘zlarini shu tashkilotning vakili sifatida his qilishadi. Xodimlarning mehnat faoliyati, tashkilot maqsadi bilan yakdillashuvi ularda yuqori ma‘naviy ruh va samarali mehnat faoliyatini shakllantiradi.

AQShdagi davlat xizmati asosini vazifalarni belgilash va natijalarga erishish tashkil etadi, bu natijalar esa asosan moliyaviy ko‘rsatkichlar orqali baholanadi. Amerika davlat xizmati mazmuniga ko‘ra, har bir loyiha belgilangan muddatda va rejalashtirilgan foyda hajmida daromad keltirishi kerak. Amerikalik davlat xizmatchisi individualist sifatida shakllangan. U uchun korxonaning foydalilik uchun kurashi o‘z ishi yoki jamiyatga xizmat qilish jarayonidan ko‘ra, shaxsiy muvaffaqiyatga erishish, o‘zini ifoda etish vositasi hisoblanadi.

Davlat xizmatida xodimlarning xizmat vazifalarida ilgarilashida umumiy maqsadga erishish uchun har bir shaxsning harakatlari, majburiyatlari va javobgarligi aniq tartibga solingan bo‘ladi. Umuman olganda, Amerika davlat xizmati individualizmga asoslangan bo‘lib, u boshqaruvning barcha shakllari va turlarida namoyon bo‘ladi va butun tizimning tuzilishiga singib ketgan.

Yaponiya va AQSh boshqaruv tizimlari o‘rtasidagi farq ushbu davlatlarning milliy mentalitetlaridagi tafovutlardan kelib chiqadi. Yapon boshqaruvining xususiyatlari — jamoaviylikka tayanish, yosh va tajribaga nisbatan hurmat, hamda yapon madaniyati an‘analariga sadoqatni ifoda etadi. Amerika boshqaruv xususiyatlari esa individualizm, shaxsiy qadr-qimmatni yuksak baholash, mustaqillik va erkinlikka intilish kabi xususiyatlardan kelib chiqadi.

Shu nuqtai nazardan tahlil qilganda, mamlakatimizdagi davlat fuqarolik xizmati sohasini takomillashtirishda ham, o‘zbek jamiyatidagi milliy qadriyatlarga sodiqlik, o‘zaro hurmat, ahloq-odob, e‘tiqod, umuman, ma‘naviy madaniyatning birlamchi o‘rinda ekanligini unutmaslik kerak bo‘ladi. Demak, milliy mentalitet, bir tomondan, individning o‘zini va dunyoni idrok etishida vositasi

bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning ijtimoiy yo'nalishi va xulq-atvor xususiyatlariga ta'sir ko'rsatuvchi omil hisoblanadi.

Davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyati davomida nafaqat samaradorlik va funksional yechimlar bilan, balki jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlash vazifalari bilan ham yuzlashadi. Davlat xizmatchilari bu jarayonda faqat yuridik va tashkiliy majburiyatlarni bajaruvchi emas, balki xalq bilan muloqot o'rnatuvchi, ijtimoiy faollikni uyg'unlashtiruvchi, ortiqcha ziddiyatlarni yumshatuvchi ijtimoiy aktor sifatida faoliyat yuritishi zarur bo'ladi. Shu sababli, Masalan, O'zbekiston jamiyatida kattaga hurmat, ko'pchilik fikrini inobatga olish, diniy va ma'naviy qadriyatlarga sodiqlik, samimiylik, xushmuomalalik, murosas, empatiya kabi sotsiomadaniy omillar davlat xodimining nutqi, munosabati va harakatida o'z aksini topishi lozim.

Har qanday ijtimoiy ziddiyat, kelishmovchilik, avvalo, odamlarning davlat xizmatchilarini tushunmasligi, xizmatchi tomonidan tinglanmaslik, xizmatchi berayotgan axborot yoki yo'nalishni noto'g'ri idrok etilishi yoki xizmatchi tomonidan samimiy muloqotning inkor qilinishi orqali yuzaga keladi. Misol tariqasida, O'zbekistondagi ko'pchilik aholining milliy qadriyatlarga yuqori hurmati, diniy e'tiqodga bog'liq sezgirligi va empativ munosabatga hassosligi davlat xizmatchilari tomonidan inobatga olinmasligi turli noroziliklarga olib kelishi mumkin. Milliy mentalitetga mos ravishda tashkil etilgan muloqot esa bu tushunmovchiliklarning oldini oladi. Shuning uchun, davlat xizmatchisi har bir muloqot vaziyatida individual va madaniy xususiyatlarni chuqur tahlil qilishi, e'tiborga olishi zarur.

“Bugungi kunning rahbari o'z ishiga faqat iqtisodiy mohiyatdan kelib chiqib, mehnat samaradorligini oshirish nuqtai nazaridagina emas, balki davlat boshqaruvi, ijtimoiy tartib-intizomning saqlanishi va jamiyat taraqqiyotini yo'lga qo'yish, qonunlar ustuvorligini ta'minlash, siyosiy jarayonlarda shaxsning tutgan o'rniga ahamiyat qaratish, jamiyatdagi psixologik moyilliklarni e'tibordan qochirmaslik asosida yondashuvi juda muhim” [11].

Shu boisdan ham mahalla yettiligi tashkil etilishi va ushbu yewrttilikning besh nafar a'zosi davlat fuqarolik xizmatchilari ekanligi ham davlat xizmatchilarining mediativlik rolini oshirish orqali jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan norozilik holatlari va ijtimoiy ziddiyatlarni oldini olishga preventiv yondashishlarining samaradorligini ko'rsatib beradi.

Mediativlik – bu ikki tomon o'rtasida yuzaga kelayotgan qarama-qarshiliklarni kelishuv, muloqot va tushunish asosida bartaraf etishga qaratilgan uchinchi tarafning vositachilik faoliyatidir. Davlat xizmatchilari o'z vakolatlari doirasida mediatsiyaga xos fazilatlarni (neytrallik, xolislik, tinglash madaniyati, empatiya, axloqiy me'yorlar) o'zlarida namoyon eta olsalar, bu nafaqat ziddiyatli vaziyatlarni bartaraf etish, balki kelgusida ularni yuzaga keltirmaslik uchun ijobiy ijtimoiy muhitni shakllantirishga ta'sir ko'rsatadi.

Shuni unutmaslik kerakki, davlat fuqarolik xizmatchisi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 28-iyundagi “Mediatsiya to'g'risida”gi Qonunning [12] 12-moddasida “davlat vazifalarini bajarish uchun vakolat berilgan yoki unga tenglashtirilgan shaxs”ning mediator bo'lishi mumkin emasligi qayd etilgan. Biroq, davlat xizmatchisi xizmat vazifalaridan kelib chiqqan holda rasmiy huquqiy jarayon bo'lmagan muayyan vaziyatda, tushuntirish, konstruktiv muloqot, murosaga keltirish yoki maslahat berish shaklida mediativ xarakterdagi rolni neytrallik va xolislik mezonlariga zid bo'lmagan holda bajarishi mumkin bo'ladi. Bu holatda ular “rasmiy mediator” sifatida emas, balki lavozimiga ko'ra xizmat vazifasidagi vakolatlari bo'yicha harakat qiladi.

Preventiv yondashuv (ing.t. preventive approach) – bu ziddiyat, kelishmovchilik yoki muammo yuzaga kelmasidan avval oldindan ko'ra bilgan holda masalaning sabablarini aniqlash, tahlil qilish va ularni bartaraf etishga qaratilgan tizimli faoliyatdir. Ushbu yondashuv nizolarni oldini olishga qaratilgan bo'lib, profilaktika, tahlil va jamiyat bilan konstruktiv muloqotga asoslangan bo'ladi.

Preventiv yondoshuvda jamiyatdagi norozilikka sabab bo'ladigan salbiy bo'luvchi o'zgarishlarni aniqlash va nizoli holatlarni oldini olishga qaratilgan aniq chora tadbirlarning amalga oshiriladi. Demak, preventiv yondashuv – bu ijtimoiy ziddiyatlar kelib chiqishidan avval ularni prognoz qilish va oldini olish strategiyasini anglatadi. Bunday yondashuv, birinchi navbatda,

fuqarolarning murojaatlarini tinglash, ularning ehtiyojlari va ehtimoliy norozilik mohiyatini anglash, aniqlash, qo'yilgan masalani ijobiy hal qilish asosida amalga oshiriladi.

Preventiv yondoshuvda davlat fuqarolik xizmatchisi:

- Joriy sotsiomadaniy muhitni muntazam tahlil qiladi;
- Aholi fikrini o'rganib boradi;
- Ijtimoiy rozilik yoki norozilik omillari kelib chiqishini oldindan ko'ra biladi;
- Mental bardosh va aholining ko'nish darajasini tahlil qiladi;
- Kostruktiv muloqotni ma'naviy qadriyatlar, empativ holat asosida tashkil qiladi;
- Aholida kelajakka ishonch, pozitiv kayfiyat, motivatsion ruhiy ko'tarinkilikni shakllantiradi.

Preventiv yondashuvda milliy mental, ijtimoiy-madaniy xususiyatlar inobatga olinishi zarurdir. Masalan, yuksak hurmat madaniyati, odob-ahloq qadriyat sifatida hukmron bo'lgan jamiyatda xizmatchi tarafidan mensimaslik yoki rasmiyatchilik tarzida fuqarolarga munosabatda bo'linishi, muloqotni ziddiyatga aylantirishi mumkin. Shuningdek, shaxsiy munosabatlarga katta ahamiyat beriladigan muhitda soxta muloyimlik, balandparvoz gaplar, noreal va'dalarning aytilishini ham xalq fahmlay oladi, buning natijasida jamiyatda davlat siyosati va islohotlar natijalariga nisbatan ishonchsizlik, davlat tashkilotlari faoliyatidan qoniqmaslik, hurmatsiz munosabat paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Bunday omillarni to'g'ri baholay olish xizmatchidan intuitiv va mental sezgirlikni talab etadi.

Milliy mentalitetni inobatga olgan holda, mediativlik funksiyasini kuchaytirish davlat fuqarolik xizmatchilarini o'z vakolat va vazifalarini xalqqa yaqin, tushunarli va insonparvar yo'sinda bajarish imkoniyatini oshiradi. Bu esa, jamiyatda davlat siyosati va boshqaruviga nisbatan ishonchning ortishi, islohotlarga hayrixoh va qo'llab-quvvatlovchi munosabatlarning shakllanishi, noroziliklarning oldini olinishi va ichki barqarorlikning ta'minlanishiga sabab bo'ladi.

XULOSA

Davlat xizmatchilari faoliyatida milliy mentalitetni inobatga olish va mediativlik fazilatlarini rivojlantirish jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatlarning oldini olishga xizmat qiluvchi muhim preventiv instrument hisoblanadi. Bu faoliyat faqatgina boshqaruv samaradorligini emas, balki xalqning davlatga nisbatan ishonchini mustahkamlash, barqaror fuqarolik muhitini shakllantirish, ichki totuvlikni saqlashga xizmat qiladi. Shu bois, kelgusida davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida milliy mental-ijtimoiy-madaniy xususiyatlarga asoslangan muloqot madaniyatini shakllantirish, davlat xizmatchilarining xalq dardiga daxldorligi, empativ munosabatini kuchaytirish orqali mediativlik funksiyasini neytral, xolis, to'g'ri va samarali rivojlantirish muhim vazifalardan biri bo'lishi lozim.

Ushbu nazariy asoslardan kelib chiqib, quyidagi ilmiy va amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Davlat xizmatchilari uchun "Xalq bilan muloqotda milliy mentalitet va preventiv yondoshuv" mavzusida maxsus treninglar tashkil qilish;
2. Har bir mahalla, korxona va tashkilotda "preventiv monitoring" tizimini joriy etish;
3. Har bir mahallada ijtimoiy ziddiyat ehtimoli yuzasidan muntazam "mental temperatura" diagnostikasini olib borish.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Falsafa qomusiy lug'ati. –Toshkent: Sharq, 2004. – 257 b.
2. Южалина Н.С. Менталитет. Сущность и структура явления. Челябинск: Изд-во ЮУрГУ, 2002. С.6-7.
3. Avlaqulov B., Avlaqulov A., Sattorov X. O'zbek milliy mentaliteti, etnopsixologik qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashning xalqimiz hayotida tutgan o'rni va ahamiyati. Practical Volume 4, Issue 7: Special Issue (EJAR) ISSN 2181-2020 Page 346.
4. Юнг К. Г. Проблемы души нашего времени. – М., 1994.

5. Freud S. Massenpsychologie und Ich-Analyse, Leipzig, Wien, Zurich, Internationaler Psychoanalytischer Verlag G.M. B. H., 1921.
6. Fromm E., Maccoby M. Social character in a Mexican Village: Englewood Cliffs. N.J, Prentice-Hall, 1970. - 303 p.
7. Вебер М. Избранные произведения: пер. с нем. / сост., общ. ред. и послесл. Ю.Н.Давыдова; предисл. П. П. Гайденко. – М.: Прогресс, 1990. – 808 с.
8. Theories of Society / Ed. by T. Parsons, E. Shils, K. Naegle, J. Pitts. New York: Free Press, 1961. Парсонс Т. Система современных обществ // Пер. с англ. Л.А. Седова, А.Д. Ковалева; Научн. ред. перевода М.С. Ковалева. - М.: Аспект-Пресс, 1997.
9. Сорокин П. Человек. Цивилизация. Общество. – М.: Прогресс, 1992. -371 с.
10. Murtozayeva R. Yoshlar va o'zbek mentaliteti xususiyatlari. Shaxs barkamolligi: axloqiy-estetik jihatlar. LSA – Yaponiya hamkorlik agentligining O'zbekistondagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda bo'lib o'tgan xalqaro konferensiya materialari. – Toshkent.: 2012. 11- b.
11. Qo'chqorov V., Ravshanov F., Xolov A. Davlat boshqaruvida rahbar kadrlarga qo'yilgan talablarning nazariy-metodologik asoslari. Toshkent., "Akademiya". 2013-y., 148-149-betlar.
12. «Mediatsiya to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2018-yil, 28-iyun. Elektron manba: <https://lex.uz/docs/3805227>. Murojaat sanasi: 31.07.2025.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 3

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000